



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

IJTIMOIIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING SINERGETIK MUAMMOLARI

**MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK ANJUMANI
MATERIALLARI**



*2023-yil 20-noyabr
Samarqand*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**



IJTIMOIIY BARQARORLIKNI TA’MINLASHNING SINERGETIK MUAMMOLARI

**MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK ANJUMANI**

MATERIALLARI

(2023-yil 20-noyabr)

Samarqand - 2023

topsangu, uning sharafini himoya qilmasang, oyoq osti bo'lishiga, qadrsizlanishiga yo'l qo'ysang, nobakor ajnabiy o'z Vatanining shon-shavkati uchun ota-bobolaringning kindik qoni to'kilgan eringni vahshiylarcha toptab, qoni simirsa va uni o'zining ahlatxonasiga aylantirsa-yu, sen hissizlarcha qarab tursang yoki undan qochsang, o'zing uning haqoratlanishiga ko'maklashsang, unda sen bu vatanning nomusli va sodiq farzandi emassan!" [3. 1919 yil 4-soni]

Sayid Rizo Alizoda Vatanga bemehr kishilarni pastkash-razil va hatto hayvondan ham tuban hisoblaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Orzibekov R. Adabiy merosimiz sehri. – Samarqand: SamDU nashri, 2006. 344-bet.
2. Alizoda Farxod. Said Rizo Alizoda(tarxiy-bibliografik ocherk).T."Abu Matbuot-Konsalt" nashriyoti. 2011. –B. 7.
3. Sayid Rizo Alizoda. "Turkiston-bizning Vatanimiz"// "Sho'lai inqilob" jurnali. 1919 yil 4-soni.

JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA OILANING O'RNI

Mirzayeva Nigina Olimovna
SamDCHTI mustaqil tadqiqotchisi
mirzayeva.nigina@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatda barqarorlikni ta'minlashda oila mustahkamligi va farovonligi masalalari xususida so'z boradi. Shuningdek, markaziy Osiyo mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy ta'limotida ayollarni e'zozlash va jamiyat ma'naviy hayotida ularning mavqeini mustahkamlashga oid qarashlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Xususan, Jaloliddin Rumiyning oila, ayol va erkak munosabatlari, farzand tarbiyasi, ayollarga ehtirom ko'rsatish kabi masalalarga bo'lgan allegorik munosabatlariga ham to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar. oila, barqarorlik, mehr-muhabbat, murosa, hamjihatlik, me'yor, oilaviy qadriyat, hurmat.

Oila – xalqimiz uchun millatning ko'p asrlik an'analari va ruhiyatiga mos bo'lgan g'oyat muhim hayotiy qadriyatlardan biridir. Mamlakatimizdagi ijtimoiy demografik ahvolning muhim xususiyati – jamiyatning asosi bo'lgan kuchli oila tizimidir.

Oila demokratik huquqiy davlatni barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida juda muhim vazifalarni bajaradi. Eng avvalo, u insonni kamol toptiradi, ijtimoiy qadriyatlar va milliy an'analarni avloddan-avlodga o'tkazishda asosiy zanjir vazifasini o'taydi.

Bilamizki, asosiy Qonunimiz bo'lmish Konstitutsiyamizning 63-moddasida oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega ekanligi belgilangan. Haqiqatan ham, jamiyatni oilasiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda hayotning turli sohalari bo'yicha qator yangiliklar va islohotlar olib borilmoqda. Yurt ravnaqi, Vatan taraqqiyoti, oila mustahkamligi, o'sib kelayotgan yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda zamonaviy va innovatsion jarayonlarga, onalar va bolalar salomatligi kabi dolzarb masalalarga keng qamrovli e'tibor qaratilmoqda. Xususan, o'zbekchilikda oila mustahkamligi masalalariga, oilaviy munosabatlarga jiddiy qaraladi.

Sharq xalqlarida oila qadim-qadimdan muqaddas qo'rg'on hisoblanadi. O'zbek oilalari o'z bolajonligi, mehmonnavozligi, qarindosh-qondoshlik rishtalarini hurmat qilishi va shu kabi qator an'analari bilan boshqa qardosh millatlardan ajralib turadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasiga ko'ra, Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi va u jamiyat hamda davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Oilani jamiyatning ravnaq topishida tutgan o'rni va ishtirokini yanada oshirish, oilalarning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy manfaatlarini va farovonligini ta'minlanishining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish hamda izchil ta'minlash maqsadida oilaviy hayot masalalarini huquqiy tartibga solishga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi qabul qilindi. [4.-B.215.]

Ma'lumki, Markaziy Osiyo qadimdan sivilizatsiya o'chog'i hisoblanadi. Markaziy Osiyoda yashab ijod qilgan istalgan allomaning hayoti va ijodini, qarashlari va asarlarini tahlil qiladigan bo'lsak, oila mustahkamligi masalalari, farzand tarbiyasi borasida qimmatli hikmatlarga duch kelamiz.

Muazzam Sharqning yetuk darg'alaridan biri, bashariyat shoiri deb e'tirof etilmish Mavlono Jaloliddin Rumiy falsafiy qarashlarida ham oila mustahkamligi masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Buyuk "Masnaviyi ma'naviy" tarkibidagi hikoyat, rivoyat va masallarida ham oila masalalari haqida, er va xotin o'rtasidagi munosabatlar haqida qator ibratli fikrlar berilgan.

Mavlono Jaloliddin Rumiy o'zining mashhur "Ichindagi ichindadir" nomli falsafiy suhbatlardan iborat kitobida er va xotin munosabatlari, xususan, erkakning o'z ayoliga qanday munosabatda bo'lmog'i lozimligi haqida shunday deydi: "... So'zlarim hozir senga ta'sir qilmasa ham, kamolga yetganing sari ular o'z kuchini ko'rsata boradi. Va sen xotin nimayu dunyo nima tushunasan. Sen nima desang ham, demasang ham, ular o'z bilganlaridan qolmaydi. Masalan, sen bir nonni olib, qo'yningga yashir va odamlarga ko'rsatma. Shunda xalqning gizlangan nonga qiziqishi ortadi. Agar ko'chalar to'la arzon non bo'lgan taqdirda ham, ular sening qo'ltig'ing ostidagi zog'orani ko'rish istagi bilan yonadilar. Nonni qancha uzoq muddat yashirsang, ularning ichlari ham shuncha shiddan bilan qiziydi. Chunki odam man etilgan narsaga nisbatan ochko'z bo'ladi. Masalan, sen xotinga " Ochiq-sochiq yurma, o'ran", desang, unda o'zini ko'rsatish orzusi tobora ortadi. O'z navbatida o'rangan ayolni ko'rishga xalq ham shuncha ishtiyoqmand bo'ladi. Mazkur ish bilan sen ikki taraflama- ko'rmoq va ko'rilmog' istagini orttirmoqdasan. Biroq sen o'zingcha, "Uni isloh qildim", deb o'ylaysan. Aslida bu ishing fasodchilik (buzg'unchilik)dan o'zga narsa emas. [2.-B.102.]

Agar unda yomon ish qilmaslik javhari (tabiatida) bo'lsa, sen hatto bunga monelik qilsang ham, u albatta, o'zining go'zal yaratilishiga muvofiq ish tutadi. Sen xavotir olma va uning aqlini, kuchini, nihoyat, ishini qorishtirma. U, baribir, o'z bilgan yo'lidan qolmaydi. Unga g'ov bo'lmoqlik – rag'batini oshirishdan boshqa ishga yaramaydi". [3.-B.106.] Demak, Mavlono bu o'rinda ko'plab oilalar ildiziga bolta uradigan o'rinsiz rashk xususida erkaklarga pand-nasihat qilmoqda. Rumiya ko'ra, ibratli oilada tarbiya topgan ayol har qanday vaziyatda va sharoitda ham, o'z e'tiqodida sobit turadi. Hayotdagi har qanday qiyinchiliklar ham uni buzuqlik ko'chasiga olib kirolmaydi. Erkak kishi tergasa ham, tergamasa ham u eriga, oilasiga, farzandlariga sadoqat bilan xizmat qilaveradi. Ammo ko'ngliga shayton in qurgan ayolning yo'liga hech narsa to'siq bo'lolmaydi. Bu haqida Mavlono: "U, baribir, o'z bilgan yo'lidan qolmaydi. Unga g'ov bo'lmoqlik – rag'batini orttirishdan boshqa ishga yaramaydi. Bunday ayoldan zudlik bilan uzoqlashmoq darkor", deydi.

Yor ila yor ittifoqi xush erur,

Ma'nisin bil, suvrati sarkash erur. [4.-B.78.]

Darhaqiqat, oila mustahkamligining muhim shartlaridan biri yor ila yor ittifoqidir. Er-xotin bir-birining tilini tushunib, o‘zaro kelishib yashashsa, bunday oilalarda xotirjamlik, ko‘ngil halovati, baxt shukuhi hukmronlik qiladi. Mavlono Jaloliddin Rumiy o‘z asarlarida oilaviy munosabatlar mustahkamligida qo‘yidagi yetti fazilatni asos qilib belgilagan. Bular: mehr, ro‘zg‘ordagi ba‘zi yetishmovchiliklarga sabrli bo‘lish, er-xotin bir-birini ardoqlashi, er-xotinning bir-birlariga e‘tiborli bo‘lmog‘i, oilada adolat maqomining ustunligi, o‘rinsiz rashk va oilaviy ittifoqlikdir.

Adabiyotlar

1. Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichindadir. – : Yangi asr avlodi, 2013. – B.102.
2. Ko‘rsatilgan asar. – B.106.
3. Jaloliddin Rumiy. Masnaviyi ma‘naviy. – T.: MERIYUS., 2010. 1-daftar. – B.78.
4. Falsafa. Entsiklopedik lug‘at. – T.; 2010. – B.215.

OILADA IJTIMOIIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDA MUOMALA MADANIYATI VA AXLOQIIY QADRIYATLARINING O‘RNI

***Egamberdiyeva Nafisa Mustafayevna**
Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti*

Annotatsiya. Ushbu maqola oilada muomala madaniyatini oshirishda axloqiy qadriyatlarining o‘rni, yoshlarni tarbiyalashda muloqot afzalliklari falsafiy tadqiq etilgan. Unda jamiyat ijtimoiy barqarorligini ta‘minlashda madaniy meros va milliy qadriyatlarining ustuvorliklari, o‘ziga xos axloqiy jihatlari ilmiy tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: madaniyat, yoshlar, oila, milliy ma‘naviyat, axloqiy qadriyat, muomala madaniyati, tarbiya, jamiyat, muloqot, xalq.

Jamiyatda har bir oila axloqiy qadriyatlar asosida mustahkam munosabatlarni tizim yondashuv asosida amalga oshiradi. Oila a‘zolari o‘z ehtiyojlarini amalga oshirish uchun aniq rejalar bilan ishlashi ko‘proq ijobiy samara beradi. Oilada farzandga ma‘lumot va bilim berishda qadriyatlardan foydalanish muhimdir. Oila bilan ularning rivojlanishi haqida ma‘lumot olishda ta’lim muassasalari o‘rtasidagi ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash muhim hisoblanadi. “Oiladan ma‘lumot almashinishning tegishli usullaridan foydalangan holda, tushunarli tarzda faoliyatni amalga oshirish dolzarb mavzulardan biri bo‘lib qolmoqda”[1].

Ma‘naviy munosabatlarning globallashuv jarayonida oilada ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda axloqiy qadriyatlar yosh avlodni tarbiyalashda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda bir qarashda ahamiyatsiz bo‘lib ko‘ringan, ammo inson ma‘naviyatiga qarshi qaratilgan kichik bir yangilik ham borligini unutmaslik kerak. Bu ko‘zga ko‘rinmas bo‘lib tuyulsa ham kelajakda jamiyatga juda katta zarar keltirishi mumkin. Keyin uni hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydi. Bunday tobora ortib borayotgan xavf-xatarlarga qarshi kurashda biz doimo ogoh, sezgir, ehtiyotkor bo‘lishimiz kerak. Bunga esa har tomonlama chuqur o‘ylangan, ilmiy jihatdan yo‘lga qo‘yilgan, doimiy va uzluksiz ijtimoiy barqarorlik bilan javob bera olamiz[2].

Oilaviy an‘analarni ijtimoiy barqaror bo‘lishida xalqning asrlardan asrga, ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan axloqiy qadriyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki oilaviy qadriyatlar o‘zbek xalqi tomonidan qadrlanib, e‘zozlanib kelinmoqda va shunday bo‘lib qolaveradi. Oilaviy an‘analar axloqiy qadriyatlarga aylangandagina ularning ta‘lim - tarbiyadagi qadr-qimmati, yoshlardagi muloqot madaniyatini shakllantirishdagi amaliy ahamiyati yanada ortadi. Shuning uchun ham oilaviy an‘analar yoshlarni tarbiyalashda, oilaviy hayotga tayyorlashda tarbiya vositasi bo‘lib qolaveradi. Masalan, hashar,

MUNDARIJA

I SHO‘BA. IJTIMOIIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASHNING OMILLARI VA FALSAFIY TAMOIYILLARI

Turayev Baxtiyor Omanovich. SAMARQANDDA SINERGETIK TADQIQOTLAR TARAQQIYOTI (“SINERGETIKA” MONOGRAFIYASI MISOLIDA)	3
Усанов Равшан Тураявич, Усанов Бахтиёр Равшанович. ПРОБЛЕМА НАСИЛИЯ В ОБЩЕСТВЕ; СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ.....	9
Yaxshilikov Jo‘raboy Yaxshilikovich, Saidahmadov Shuhrat Shamiyevich. IMOM BUXORIY “HADISLAR” TO‘PLAMIDA AXLOQIY MASALALARNING FALSAFIY TAHLILI	14
Nurullayeva Umida Nuriddinovna. XOTIN-QIZLAR IJTIMOIIY KAYFIYATI JAMIYAT BARQARORLIGI O‘LCHOVI SIFATIDA	17
Eshanova Gulchexraxon Numonovna. SAN‘AT IJTIMOIIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASHNING OMILLARI SIFATIDA	21
E.Ulug‘murodov. ISLOM TA‘LIMOTIDAGI INSON VUJUDI (BORLIG‘I) TAVSIFINI FALSAFIY TAHLILI	23
Axmedov Sohob Sayimovich. JAMIYAT BARQARORLIGINI TA‘MINLASHDA IJTIMOIIY MUROSA MADANIYATINING O‘RNI	25
Tog‘ayev Nodirjon Ergashevich. O‘ZBEKISTONDA MA‘RIFATLI JAMIYAT BARPO ETISH – IJTIMOIIY BARQARORLIK OMILI.....	27
Djurakulov Xusan Anvarovich. EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDA EKOTURIZMNING ICHKI IMKONIYATLARINI OSHIRISH ZARURIYATI	31
G‘aybullayeva Laylo Safarboyevna. MAHALLALARDA IJTIMOIIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDA YOSHLAR SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH MASALALARI	36
Ro‘zimurodov Siroj Madatovich. MAHALLA VA OILADA SOG‘LOM MUHIT BARQARORLIKNI TA‘MINLASHNING AXLOQIY-ESTETIK ASPEKTLARI.	38
U.Nazarov. SAID RIZO ALIZODA MA‘NAVIY-FALSAFIY MEROSINING YOSHLARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDAGI O‘RNI	41
Mirzayeva Nigina Olimovna. JAMIYAT BARQARORLIGINI TA‘MINLASHDA OILANING O‘RNI	43
Egamberdiyeva Nafisa Mustafayevna. OILADA IJTIMOIIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDA MUOMALA MADANIYATI VA AXLOQIY QADRIYATLARNING O‘RNI.....	45
Turayeva Dildora Shuxratovna. MULOQOT MADANIYATI IJTIMOIIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASH OMILI SIFATIDA	47
Djavotova Marjona Djamolovna. SHARQ FALSAFASIDA RAHBAR IJTIMOIIY BARQARORLIGINING TA‘MINLASHNING AXLOQIY-ESTETIK OMILLAR.....	49
Hamdamov Islom Akramovich. MIRZO ULUG‘BEK DAVRIDA IJTIMOIIY-FALSAFIY G‘OYALAR	51
Norkulov Olim Nasimovich. MIGRANTLAR FAOLIYATIDA IJTIMOIIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASH MASALALARI.....	53
Sh.J.Xashimov. ZIYORAT TURIZMI O‘ZBEKISTON XALQARO IMIDJINI YUKSALTIRISH VA IJTIMOIIY BARQARORLIGINI TA‘MINLASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA	55
Matyakubova Gulnoza Atabekovna. NOSIRIDDIN TUSIYNING MA‘RIFIY VA PEDOGOGIK NAZARIYASINI O‘RGANISHNING O‘ZIGA XOSLIGI.....	59